

# "O'zkimyosanoat" Ajda "Avtomobillarsiz kun"

// 22.09.2025

<https://uzkemyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-avtomobillarsiz-kun>




22-sentyabr — dunyo miqyosida "Avtomobillarsiz kun" sifatida nishonlanadi. Ushbu kunning asosiy maqsadi — shaharlardagi havo ifloslanishini kamaytirish, transport vositalaridan kelib chiqadigan zararli chiqindilarga qarshi kurashish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib etishdan iborat.

Shu munosabat bilan, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyatni rahbariyati va xodimlari tashabbus ko'rsatib, ushbu ekologik aksiyada faol ishtirok etdilar. Jamiyatning markaziy apparatida faoliyat yurituvchi ko'plab xodimlar ish joyiga piyoda, velosipedda yoki jamoat transportlaridan foydalangan holda keldilar.



Bunday tashabbus nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki jismoniy faollilikni oshirishga ham xizmat qiladi. Xodimlar bu kuni sog'lom hayat tarzi, ekologik madaniyat va jamoaviy mas'uliyat haqida o'ylash uchun yana bir imkoniyat sifatida qabul qildilar.

"O'zkimyosanoat" AJ rahbariyati ushbu tadbirni joriy yilda ilk bor tashkil etgan bo'lsa-da, bundan buyon uni an'anaviy tarzda har yili o'tkazish niyatida. Jamiyat ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat masalalariga doimiy e'tibor qaratib keladi va bu kabi tashabbuslar uning korporativ madaniyatida muhim o'rinn tutadi.















**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**